Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1066
Kurbonov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1071
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari.....	1078
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish	1083
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1087
Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy texnologiyalarning o'rni	1092
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1097
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1102
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1107
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	



“YASHIL” SANOAT SIYOSATINI YURITISH ZARURIYATI: BOZOR NUQSONLARIDAN MILLIY XAVFSIZLIKKACHA

Muqimov Sherali Axmadali o'g'li

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada sanoat siyosatini “yashil” tarzda yuritish kerakligi bozor nuqsonlari yordamida asoslashga harakat qilinadi. Asosiy nuqsonlar sifatida bozorda yangi texnologiyalar natijasida olinadigan ijobiy samaralarning mukofotlanmasligi (1), bozorning jahonda sodir bo'layotgan yashil transformatsiya jarayonlarida raqobatbardoshlikni saqlab qolishga ko'maklashmasligi (2), shuningdek milliy xavfsizlikni ta'minlay olmasligi (3) keltiriladi.

Kalit so'zlar: sanoat siyosati, bozor nuqsonlari, subsidiya, investitsiya, ekologik siyosati, milliy xavfsizlik, energetik xavfsizlik.

Abstract: In the paper we make an attempt to prove that industrial policy should be conducted in a “green” form to address market failures. As main market failures, we indicate: market doesn't reward positive effects of new eco-friendly technologies (1), market cannot be helpful in maintaining global competitiveness while global green transformation process (2), and market cannot ensure national security (3).

Key words: industrial policy, market failures, subsidy, investment, ecological policy, national security, energy security.

Аннотация: В статье с помощью недостатков рынка обосновывается необходимость ведения промышленной политики в “зеленой” форме. В качестве основных недостатков приводятся: рынок не вознаграждает за позитивные эффекты от применения новых эко-технологий (1), не содействует сохранению конкурентоспособности в контексте глобальных процессов зеленой трансформации (2), а также не обеспечивает национальную безопасность.

Ключевые слова: промышленная политика, недостатки рынка, субсидия, инвестиция, экологическая политика, национальная безопасность, энергетическая безопасность.

KIRISH

O'tgan asrning ikkinchi yarmida iqtisodchilar rivojlanib kelayotgan dunyoning bozor nuqsonlariga to'raligiga, kambag'al davlatlarning nochorlik tuzog'idan faqatgina hukumatning kuchli intervensiyalari hisobiga chiqib keta olishlariga ishonishar edi. Keyin esa shunday vaqtlar keldi-ki, ular hukumatning nuqsonlari yanada jiddiyoq oqibatlarga olib kelishiga, shu sababli davlat uchun eng yaxshisi iqtisodiyotning g'ildiraklarini aylantirish davosidan voz kechish ekanligiga amin bo'la boshladilar ^[1]. Lekin vaqt ushbu to'xtamning ham mutlaq to'g'ri emasligini, davlatlar ulkanroq maqsadlar yo'lida baribir sanoat siyosatini yuritish lozimligini anglab yetdilar. Bunday maqsadlarning asosiysi iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatish va ularga moslashish uchun iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hisoblanadi. Ayni shu maqsadga erishish yo'lida sanoat siyosati ham yashil transformatsiyadan o'tdi va dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinib ulgurdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil sanoat siyosati (YASS) o'zining fundamental asoslariga ko'ra an'anaviy sanoat siyosatiga juda o'xshashdir. Ya'ni, sanoat siyosatini oqlash uchun qo'llaniladigan asosiy argument – bozor nuqsonlari YASSni asoslashda ham to'liq ishlatilishi mumkin. Shuningdek, yana bir qator o'ziga xos jihatlar borki, ular YASSning yuritilishi lozimligini isbotlash uchun yetarli bo'ladi. Ular orasida eng muhimi, tabiiyki, ekologik tashqi ta'sirlardir ^[2].



Agarda bozorlar nuqsonsiz faoliyat yuritganda, tabiiy resurslar va atrof-muhit obyektlari o'zining haqiqiy ijtimoiy marjinal qiymatida narxlanganda, texnologiya yaratuvchilar o'z erishgan yutuqlariga mutanosib ravishda rag'bat olganlarida edi, yashil loyihalarga investitsiyalar kiritish bo'yicha qaror qabul qilishni butunlay tadbirkorlar, korporatsiyalar va moliya bozorlarining ixtiyoriga topshirib qo'ygan bo'lardi ^[3]. Lekin, haqiqatda shunday omillar borki, ular qaror qabul qilish jarayonida moddiy manfaat va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi uyg'unlikning ta'minlanishiga yo'l qo'ymaydi. Nazariy jihatdan ushbu omillar to'plami bozor nuqsonlari sifatida qabul qilinadi.

Bozor nuqsonlarining mavjudligi fanda tan olinib, allaqachon darslik va o'quv adabiyotlari mundarijasiga kiritilgan. Ularning asosiylari sifatida nomukammal raqobat, tashqi ta'sirlar va nomukammal axborotni keltirish mumkin ^[4]. Bunga qo'shimcha ravishda daromadlar tengsizligiga yo'l qo'yilishi, ijtimoiy ne'matlarning ishlab chiqarilmasligi, iqtisodiy sikllarning yuzaga kelishiga ham bozorning nuqsonlari sifatida qaraladi. Salbiy tashqi ta'sirlar tarkibida havoning ifloslanishi ham keltirilsa-da, o'nlab boshqa ta'sir va nuqsonlar orasida, tabiiyki, ushbu muammoga kamroq e'tibor qaratiladi. YASS esa aynan shu yetishmayotgan e'tiborni eng muhimga aylantirish bilan birga, bozorning qolgan nuqsonlarini ham to'g'rilashga qaratiladi.

YASSning eng muhim xususiyati bu atrof-muhitga zarar keltiradigan ishlab chiqarishlarning ijtimoiy badalini yuzaga chiqarish va shu orqali bozor nuqsonlarini to'g'rilashda namoyon bo'ladi. Yashil texnologiyalarni joriy qilayotgan firmalar o'zlari keltirayotgan ijtimoiy nafga nisbatan sezilarli darajada kamroq moddiy naf oladilar. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyot tarmoqlariga yashil investitsiyalarning yetarli darajada kiritilmasligiga zamin hozirlaydi ^[5]. Investitsiya jarayonlarida ijtimoiy va moddiy naf o'rtasidagi hamohanglikning bu kabi buzilishini bozorning birinchi tur nuqsonlari sifatida ko'rish mumkin. D.Rodrik yondashuvidan ^[3] foydalangan holda mazkur nuqsonlarni 3 yo'nalishda tushuntirish mumkin.

Birinchidan, yangi texnologiyalarning yaratilishi bir qator noiqtisodiy xarakterdagi ijobiy samaralarga olib keladi. Biroq, ushbu samaralar uchun texnologiyaning yaratuvchilari hech qanday naf olmaydilar. Samaralar firmalararo yoki tarmoq darajasida o'zaro o'rganish, malakaning oshishi yohud aglomeratsiya ko'rinishida bo'lishi mumkin. Qayd etish joizki, bunday bozor nuqsonlarini, yashil yoki yashil emasligidan qat'iy nazar, barcha yangi joriy etilgan texnologiyalar uchun tatbiq qilish mumkin. Shunday bo'lsa-da, yashil texnologiyalar o'zining mutlaq yangi va eksperimental tabiati hamda yaratuvchilari uchun taqdim etadigan risklari sababli oddiy texnologiyalarga nisbatan bozor nuqsonlariga mo'rtroq bo'ladi.

Ikkinchidan, yashil texnologiyalarni joriy qilish aksariyat hollarda an'anaviy texnologiyalarni qo'llash va chiqarilgan issiqxona gazlari uchun to'lovlarni amalga oshirishdan anchayin qimmatroq bo'ladi. Boz ustiga atrof-muhitga do'st texnologiyalarni qo'llash uchun bozor yetarlicha rag'batlarni yaratmaydi. Shu sababli, davlatlar ekologik siyosatni yuritishda avvalo yashil texnologiyalarni subsidiyalash yo'lidan boradilar. Biroq, hanuzgacha hukumatlarning qazilma yoqilg'ini subsidiyalashi, shuningdek soliqlar va tartibga solish choralarini iqlim o'zgarishlarining haqiqiy ijtimoiy badaliga nisbatan kamroq va yumshoqroq amalga oshirishlari holatlari tez-tez uchrab turadi. XVJning 2013-yilgi hisob-kitoblariga ko'ra ^[21], jahon bo'yicha energiyaga subsidiyalar 1,9 trln dollar yoki global YAIMning 2,5% ni tashkil qiladi. Holbuki, yashil texnologiyalar va muqobil energiyani subsidiyalash uchun sabablar ko'proq, argumentlar kuchliroqdir.

YASSni asoslovchi uchinchi nuqson bozorning jahonda sodir bo'layotgan yashil transformatsiya jarayonlarida raqobatbardoshlikni saqlab qolishga ko'maklashmasligi bilan izohlanadi. Iqlim o'zgarishi muammosi xalqaro hamjamiyatda kun tartibining bosh masalalaridan biriga aylangach, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar yashil sanoatni qo'llab-quvvatlay boshladilar. Odatda, bundan ko'zlangan asosiy maqsad global raqobatda mahalliy sanoatni saqlab qolish hisoblanadi ^[3]. Muayyan yashil texnologiyani birinchi bo'lib ishlab chiqish bir tomondan yangi bozorlarni ochib bersa, boshqa tomondan mamlakat texnologik taraqqiyotining kelajak yo'lini belgilab berishi mumkin. Shuningdek, milliy texnologiyalarga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash raqobatbardosh bo'lmagan sanoat tarmoqlarida xorijiy ishlab chiqaruvchilar "foйда"sini kamaytirishi ehtimoli yuqori.

D.Rodrik tomonidan ilgari surilgan 3 yondashuvga qo'shimcha ravishda bozorning davlatlararo hamkorlikni qo'llab-quvvatlamasligi yoki buni taqozo eta olmasligini keltirish mumkin. Iqlim o'zgarishlari umumbashariy muammo bo'lsa-da, uni hal qilishda davlatlar turlicha kuch safarbar etadilar. Ayni vaqtda hukumatlar ushbu jarayonda o'z milliy iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash yo'lida vaziyatdan foydalanib qolishga ham albatta urinib ko'radilar. Qaysidir mamlakat ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun sanoatni yashillashtirishga katta miqdorda mablag'larni yo'naltirsa, unga qo'shni bo'lgan boshqa mamlakat an'anaviy (arzon) texnologiyalar orqali raqobat ustunligini qo'lga kiritish mumkin. Bunda xavfsizlikning bo'linmasligi tamoyili yaqqol namoyon bo'ladi: qo'shni mamlakatlardan birining ekologik muammolarga yetarlicha e'tibor qaratmasligi butun mintaqqa iqlimi uchun tahdidlarning saqlanib qolishiga olib keladi. Shu sababli, davlatlar o'rtasida ekologik siyosatni muvofiqlashtirish va buning uchun xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun asosiy instrument sifatida sanoat siyosati o'rta qo'yiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur muammoni tadqiqotining bir qator usullardan foydalanish asosida o'rganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o'rganilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'p sonli bozor nuqsonlari milliy darajadagi muammolarni keltirib chiqaradi va ularni hal qilish uchun ham milliy darajada chora-tadbirlarni amalga oshirish yetarli bo'ladi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, bozorning ekologik muammolarga yo'l qo'yishi global va mintaqaviy ahamiyatga. Shu nuqtayi nazardan, N.Stern iqlim o'zgarishlari dunyo ko'z ochib ko'rgan eng yirik bozor nuqsonining oqibatidir ^[6], deb ta'kidlab o'tdi.

O.Edenhofer esa atmosferani issiqxona gazlarini yutuvchi global umumiy resurs sifatida tavsiflab, uning hamma uchun ochiqqligini va dunyoning ko'plab mintaqalarida har bir kishi undan bepul foydalanishini ta'kidlab o'tadi ^[7]. Darhaqiqat, atmosferaga chifirilgan issiqxona gazlari faqatgina ular kelib chiqqan joy (geografik manba) ning o'zigagina ta'sir qilmaydi, balki butun mintaqa yohud yer shariga u yoki bu darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, agarda bir mamlakat issiqxona gazlari emissiyasini cheklash uchun sa'y-harakatlarni amalga oshirsa, bundan qolgan barcha mamlakatlar, shu jumladan hech qanday chora ko'rmaganlar ham manfaat ko'radi. Bu kabi vaziyatni J.Eldi va R.Stevenslar ta'biri bilan quyidagicha baholash mumkin ^[8]: "deyarli har bir yurisdiksiyaning o'z harakatlari natijasida oladigan iqlimiy naflari unga sarflangan xarajatlardan kamroq bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi global naflar global xarajatlarga nisbatan anchayin ko'proq bo'lishi mumkin".

Iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, yuqoridagi muammoni G.Hardin tomonidan taklif etilgan "umumiy boyliklar fojeasi" (tragedy of the commons) nazariyasi ^[9] bilan izohlash mumkin. Ushbu nazariyaga muvofiq barcha iqtisodiy subyektlar umumiy boylik (resurs)dan o'z manfaatlari yo'lida maksimal darajada foydalanishga, hattoki bu boshqalarning manfaatlariga zid bo'lsa ham, moyil bo'ladilar. Natijada ortiqcha iste'mol qilish, yetarlicha investitsiya kiritmaslik, tabiiy resurslarning tugatilishi kabi holatlar yuzaga keladi. Xuddi shu sababga ko'ra, davlatlar o'rtasida boshqalarning hisobidan manfaat ko'rish (free-ride) muammosi yuzaga kelib, iqlimga investitsiyalar kiritishda nomutanosibliklar paydo bo'ladi ^[10]. D.Rodrik esa mazkur vaziyatni siyosiy iqtisodiyot va davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan baholagan ^[3]. Uning fikricha, atrof-muhitga ta'sirlar mikrodarajada bozor nuqsonlarini to'g'rilashni taqozo qilsa, yalpi (makro) darajada muvofiqlashtirish (koordinatsiya) zaruratini keltirib chiqaradi. Muallifning bu yerda muvofiqlashtirish deganda davlat siyosatini, aniqroq aytganda yashil sanoat siyosatini nazarda tutgan, deb xulosa qilish mumkin.

Global isishni jilovlash va uglerod emissiyasini qisqartirish global manfaatlarni o'zida ifoda etadi. Agarda bu manfaatlar ta'minlanmasa, dunyoning barcha mamlakatlari salbiy oqibatlar bilan yuzlashadilar. Shu nuqtayi nazardan, yashil sanoat siyosati iqlim o'zgarishlari siyosati kabi xalqaro darajada muvofiqlashtirilishi kerak bo'ladi.

Bozor bu shunday mexanizmki, uni shaxsiy manfaatlar harakatga keltiradi. Aynan shu holat uning nuqsonlar bilan ishlashi, ya'ni shaxsiy manfaatlarning jamiyat manfaatlaridan ustun kelishi yangi ijtimoiy me'yorga aylanishiga sharoit yaratadi. Yuqorida bozorning klassik nuqsonlari atroflicha yoritildi. Shunday bo'lsada, tadqiqotchilar diqqatidan chetda qolayotgan hamda ahamiyati bo'yicha an'anaviylaridan qolishmaydigan yana bir nuqson borki, uni alohida yoritmaslik mazkur ilmiy ishning mazmunan to'kis bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Bu nuqsonni bozorning milliy xavfsizlikni ta'minlamasligi bilan izohlash mumkin.

BMT tomonidan ma'qullangan ta'rifga ko'ra, milliy xavfsizlik davlatning o'z fuqarolarini himoya va mudofaa qila olish qobiliyati deb tavsiflanadi ^[11]. Klassik ta'rifga ko'ra esa milliy xavfsizlik deganda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining ta'minlanganlik holati sifatida tushuniladi¹. YASS esa bunda milliy xavfsizlikni ta'minlash vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Buning eng yorqin misollaridan biri energetik xavfsizlikdir.

Qazilma yoqilg'ining tugab borishi ko'plab mamlakatlarni energiya resurslarini import qilishga, vaqt o'tishi bilan esa importga qaramlikka olib kelishi mumkin. Yashil energiya manbalaridan foydalanish esa ushbu holatning oldini olish, S.Valentayn ta'biri bilan aytganda ^[12] energetik xavfsizlik va qayta tiklanadigan energiyadan iborat yangi simbiozning paydo bo'lishiga sharoit yaratadi. Bunda davlat tomonidan olib boriladigan YASS atrof-muhitni muhofaza qilishdan ko'ra energetik xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etishga qaratiladi. Xususan, O'zbekistonda ham yashil energiyaga o'tishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri tabiiy gazni tejash hisoblanadi ^[13].

Bu kabi misollarni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash (masalan, iqlim o'zgarishlari chidamli navlarni yaratishga investitsiyalarni yo'naltirish), aholi salomatligini saqlash (ekologiyasi og'ir hududlarda yashil sanoat zonalarini tashkil etish), kambag'allikni qisqartirish (yashil ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlash) kabi milliy xavfsizlik sohalarida ham davom ettirish mumkin.


1 Ushbu ta'rif shu daraja ommalashganki, ilmiy adabiyotlarda uni manbasiga havola qilmay taqdim etiladi.



So'nggi vaqtlarda jahonda sodir bo'layotgan qurolli konfliktlar davlatlarni o'z xavfsizligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilishga har qachongidan ko'proq e'tibor qaratishga majbur qila boshladi. Bunda asosiy harakatlar mudofaa sanoatini rivojlantirish yoki yangi bosqichga olib chiqishga yo'naltirilmoqda. Biroq, bozor munosabatlari barcha sohalarga to'liq kirib borganligi sharoitida bu vazifani faqatgina davlat sektori orqali amalga oshirish deyarli imkonsiz bo'lib qoldi. Shu sababli sohaga xususiy sektorni jalb qilish, harbiy-texnik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, yangi va yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga ega mudofaa vositalarini ishlab chiqarishda mazkur sektor imkoniyatlaridan davomli foydalanishni sanoat siyosatisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bunda harbiy xarakterga ega bozor munosabatlarini rivojlantirishda YASS mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Chunki qurolsozlikka jalb qilinayotgan xususiy kompaniyalar ham xuddi yashil texnologiyalarni joriy qiluvchilar kabi "birinchi bo'lish riski"ni qabul qiladilar.

Yashil sanoat siyosatini mas'uliyatli taraqqiyot yoki yashil o'sishning asosiy vositalaridan biri sifatida ko'rishga ham yetarli asoslar bor. Yaqin yillardan beri xalqaro siyosiy diskursda yashil o'sish g'oyasi keng qo'llanilmoqda. BMT, Jahon banki guruhi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Katta yettilik (G-7) va yigirmalik (G-20) davlatlari tomonidan yashil o'sish strategik vazifa sifatida qabul qilindi ^[14]. Ko'plab murakkab ta'riflar ichida OECDning yashil o'sishga bergan ta'rifi o'zining sodda va ma'nodorligi bilan ajralib turadi: "yashil o'sish iqtisodiy o'sish va rivojlanishni qo'llab-quvvatlashni anglatib, unda tabiiy aktivlar insonlar farovonligini resurslar va atrof-muhit xizmatlari bilan ta'minlash uchun yetarli darajada saqlanib qoladi ^[15] (mual. tahr.). Bu va boshqa ta'riflarni bog'lab turuvchi umumiylik atrof-muhit va kelajak avlod oldidagi mas'uliyatni bajarishga bo'lgan ehtiyojda aks etadi.

YASSni yuritish zaruratini aynan shu obyektiv va hayotiy muhim ahamiyat kasb etuvchi ehtiyoj bilan ham izohlash mumkin. O'zimiz va kelajak avlod uchun munosib yashash sharoitlarini yaratishni istar ekanmiz, tabiiy resurslardan foydalanish masalasiga nisbatan yondashuvimizni keskin o'zgartirishimiz kerak ^[16]. Global iz tarmog'i (Global footprint network)ning hisob-kitoblariga ko'ra, insoniyat Yer sayyorasining real imkoniyatlaridan eng kamida 75%ga ko'proq foydalanmoqda. Ya'ni, hozirgi iste'mol sharoitida tabiiy balansni ta'minlash uchun bizga 1,75 birlik sayyora kerak bo'ladi ^[17]. Shuningdek, ushbu tarmoq tomonidan Yerdan qarzдорlikning boshlanishi kuni (Earth overshoot day) 2023-yilda butunjahon uchun 2 avgust, O'zbekiston uchun esa 11 oktyabr ekanligi aniqlangan ^[18]. Bu shuni anglatadiki, Yer sayyorasining yillik biologik qayta tiklash salohiyati jahon bo'yicha 8 oy, O'zbekistonda 10 oy ichida iste'mol qilinib, tugatiladi. Ushbu raqamlar asosida xulosa qilish mumkin, insoniyatning joriy yashash tarzi atrof-muhit nuqtayi nazaridan mas'uliyatli emas.



1-rasm: 1971–2023-yillarda Yerdan qarzдорlikning boshlanishi kunlari

Manba: Global Footprint Network, National Footprint and Biocapacity Accounts 2023.

O'z navbatida, atrof-muhit va tabiiy resurslarni saqlab qolish uchun iqtisodiy o'sishni "qurbon qilish" ham ma'noga ega emas. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning mart oyida 659 mln kishi global kambag'allik chizig'idan (kuniga 2,15 doll.dan kam daromadga ega bo'lish) quyida – o'ta kambag'al holda hayot



kechirgan ^[19]. Aholi soni hamda shunga mutanosib tarzda ehtiyojlarning miqdor va sifat jihatdan o'sib borishi esa iqtisodiy taraqqiyotning faqat oldinga yurishini taqozo etadi. Davlatlar oldida esa ushbu 2 jarayonni muro-saga keltirish, ular o'rtasidagi "oltin o'rtaliq"ni topish masalasi kundan-kun yanada hayotiy muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Dunyo bo'yicha emissiya qilinayotgan issiqxona gazlarining 73,2% u yoki bu shaklda sanoat bilan bog'liq (asosan energiya ishlab chiqarish orqali) holda hosil bo'ladi ^[20]. Demak, davlatlar emissiya darajasini pasayti-rishni maqsad qilsalar, asosiy e'tiborni sanoatni tartibga solishga qaratishlari kerak bo'ladi. Bu borada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui yashil sanoat siyosatini yuzaga keltiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash o'rinli, jahonda "yashil iqtisodiyot", "yashil o'sish" kabi g'oyalar keng muomalada bo'lsa-da, ularni amalga oshirish vositasi hisoblangan YASSga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Ushbu siyo-satni amalga oshirish davlatning bozor nuqsonlarini to'g'rilash maqsadida iqtisodiyotga aralashuvini nazarda tutadi va shuning uchun ham, maqsadli amalga oshirilgan taqdirda, siyosiy-iqtisodiy risklarni keltirib chiqar-maydi. Shu sababli, YASS strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda faqatgina bozor nuqsonlarini to'g'rilashga e'tibor qaratilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rodrik, Dani. Industrial policy for the twenty-first century, 2004.
2. Cosbey, Aaron. Green Industrial Policy and the World Trading System. Issue Brief, 17. ENTWINED 2013/10/30. – P.5.
3. Rodrik, Dani. Green industrial policy // Oxford Review of Economic Policy, Volume 30, Number 3, 2014, pp. 469–491.
4. Samuelson Paul A., Nordhaus William D. Economics. – 19th ed. p. cm. – The McGraw-Hill series economics. – P.164.
5. Altenburg Tilman, Rodrik Dani. Green industrial policy: Accelerating structural change towards wealthy green Econo-mies, Ch.1. In: Altenburg, T., & Assmann, C. (Eds.). (2017). Green Industrial Policy. Concept, Policies, Country Expe-riences. Geneva, Bonn: UN Environment; German Development Institute. – P.12.
6. Stern, N. (2007). The economics of climate change: The Stern review. Cambridge: Cambridge Univ. Press.
7. Edenhofer O., K. Seyboth, F. Creutzig and S. Schlömer (2013) 'On the Sustainability of Renewable Energy Sources', Annual Review of Environment and Resources 38: 169-200.
8. Aldy, J. and R. Stavins (2011) 'The Promise and Problems of Pricing Carbon: Theory and Experience', National Bureau of Economic Research, Working Paper 17569.
9. Hardin, G. (1968) 'The Tragedy of the Commons', Science 162(3859): 1243-1248.
10. Tagliapietra S., Veugelers R. A green industrial policy for Europe. – Bruegel, 2020. – P. 41.
11. Osisanya S. National Security versus Global Security. Манба: <https://www.un.org/en/chronicle/article/national-security-versus-global-security>. Мурожаат санаси: 19.03.2024 йил.
12. Valentine S. V. Emerging symbiosis: Renewable energy and energy security //Renewable and sustainable energy reviews. – 2011. – T. 15. – №. 9. – C. 4572-4578.
13. "Yashil" energetika ham iqtisodiyot drayverlaridan biriga, ham chinakam umummilliy harakatga aylanmoqda, 7-xat-boshi. Manba: <https://president.uz/uz/lists/view/7055>. Мурожаат санаси: 02.04.2024 йил.
14. Jacobs M. Green Growth: Economic Theory and Political Discourse. Centre for Climate Change Economics and Policy Working Paper No. 108. October 2012. – P. 4.
15. OECD. 2011. Towards Green Growth. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development
16. Pegels A. Why we need a green industrial policy //Green industrial policy in emerging economies, London: Routledge. – 2014. – P. 2.
17. WWF (2022) Living Planet Report 2022 – Building a naturepositive society. Almond, R.E.A., Grooten, M., Juffe Bignoli, D. & Petersen, T. (Eds). WWF, Gland, Switzerland. – P. 66.
18. Country Overshoot Days. Манба: <https://overshoot.footprintnetwork.org/newsroom/country-overshoot-days/dates/>. Мурожаат санаси: 24.01.2024 йил.
19. Baah S.K.T. et al. March 2023 global poverty update from the World Bank: the challenge of estimating poverty in the pandemic. World Bank Blog. Манба: [https://blogs.worldbank.org/opendata/march-2023-global-poverty-up-date-world-bank-challenge-estimating-poverty-pandemic](https://blogs.worldbank.org/opendata/march-2023-global-poverty-update-world-bank-challenge-estimating-poverty-pandemic). Мурожаат санаси: 26.01.2024 йил.
20. Hannah Ritchie (2020) - "Sector by sector: where do global greenhouse gas emissions come from?" Published online at OurWorldInData.org. Retrieved from: 'https://ourworldindata.org/ghg-emissions-by-sector' [Online Resource]. Мурожаат санаси: 26.01.2024 йил.
21. IMF (2013), Energy Subsidy Reform: Lessons and Implications, Washington, DC, International Monetary Fund, 28 January. Мурожаат санаси: 10.01.2024 йил. Манба: <http://www.imf.org/external/np/pp/eng/2013/012813.pdf>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.